

Surxondaryo viloyatida transport tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi

Abdunazarov Xusan Mengliyevich Termiz davlat universiteti,
Geografiya kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi Termiz,
O'zbekiston,

Xolboyeva Marjona, Alimova Jasmina Termiz davlat universiteti
Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabalari Termiz, O'zbekiston.

Annotasiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida temir yo'l transportining shakllanishi va rivojlanishi, hamda hududiy joylashishi shuningdek ushbu transport tarmog'ning mustaqillik yillarida rivojlanishi kabi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy-siyosiy omil, yagona transport tizimi, temir yo'l liniyalari, temir yo'l zichligi, yo'lovchi va yuk tashush aylanmasi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются формирование и развитие железнодорожного транспорта в Сурхандарьинской области, а также его территориальное положение и развитие данной транспортной сети в годы независимости.

Ключевые слова: историко-политический фактор, единая транспортная система, железнодорожные линии, плотность железных дорог, пассажирские и грузовые перевозки.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF TRANSPORT NETWORKS IN SURKHANDARYA REGION

Abdunazarov Khusan Mengliyevich — Associate Professor, Department of
Geography, Termez State University, Candidate of Geographical Sciences,
Termez, Uzbekistan

Kholboyeva Marjona, Alimova Jasmina — 2nd-year students, Geography
Education program, Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation: This article covers the formation and development of railway transport in the Surkhandarya region, its territorial location, and the development of this transport network during the years of independence.

Key words: historical and political factor, unified transport system, railway lines, railway density, passenger and freight traffic.

Mamlakatimizning janubiy mintaqasi Surxondaryo viloyatida temir yo‘l transportining rivojlanishi tarixiy-siyosiy omillar asosida vujudga kelgan. Mintaqada dastlabki temir yo‘llarning qo‘rilishi Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati negizida amalga oshirilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra Chor Rossiya hukumatining o‘lkada o‘z manfaatlarini mustahkamlash borasida Krasnovodsk- Chorjo‘y -Buxoro yo‘nalishidagi temiryo‘l ni janubga tomon Qarshi –Termiz yo‘nalishida davom ettirish orqali o‘lkaning tabiiy xom ashyo boyliklaridan foydalanish hamda siyosiy-harbiy mavqeini mustahkamlashga qaratilgan.

1914 yil boshida muhandislar Surxon vohasi hududida temir yo‘l qurish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikni boshlab yubordilar. Buxoro –Termiz temir yo‘l qurilishida nafaqat Rossiya, balki chet davlatlar, xususan Italiya va Avstriyadan kelgan mutaxassislar ham ishtirok etishdi. Qurilishning aksariyat ishchilari mahalliy aholi vakillaridan iborat edi. 1915yil iyun oyida birinchi tunnel bitkazildi. 1916 yil 16-iyunga kelib, 573 verst bo‘lgan Kogon-Samsonovo-Termiz temir yo‘l tushirish va ortish ishlarni yo‘lga qo‘yish, yuklarni xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishi ishga tushirildi.

Temir yo‘l ish hajmini kengaytirish hamda yuklarni maqsadida 1916 yil Termiz temir yo‘l bekati qurildi ¹.

1917 yilda Rossiyada amalga oshirilgan Oktyabr to‘ntarishi natijasida CHor Rossiyasi tuzumining ag‘darilishi, hokimiyat tepasiga kelgan sho‘ro hukumati 1918 yilda O‘rta Osiyo-Toshkent temir yo‘lini, 1919 yilda Kelif-Termiz temir yo‘li

¹ Хидиров Х. Ўзбекистонда транспорт соҳаси:Натижалар ва муаммолар.”Тафаккур авлоди” Тошкент. 2021й-182 6-22-236

hamda Amudaryo daryo floti ustidan o'z nazoratini o'rnatadi. O'lkada temir yo'llarning qurilishi sobiq Sho'ro tuzumi davrida ham davom ettirildi.

1925 yilda viloyatning ma'muriy markazi Termiz shahridan Termiz-Jarqo'rg'on –Surxon yo'nalishida temir yo'l liniyasi qurib ishga tushiriladi. Ushbu yilda Termiz stantsiyasidan Amudaryo daryo portiga temir yo'li quriladi. 1929-1932-yillarda uzunligi 248 km bo'lgan Termiz –Dushanbe temir yo'li qurilib, O'zbekiston temir yo'lga birlashtiriladi. SHuningdek, 1930-yillarda o'lkada Termiz-Kelif, Sho'rchi-Denov, Termiz- Regar yo'nalishidagi temir yo'llar qayta ta'mirlandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin temir yo'l transporti o'lka iqtisodiyotini tiklash, xalq xo'jaligi yuklarini tashishga xizmat qildi.

O'tgan asrning 50-60 yillarda yangi yerlarning qishloq xo'jaligi maqsadlarida o'zlashtirilishi, yangi konlarning ishga tushirilishi negizida qishloq xo'jaligi mahsulotlari va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi hisobiga temir yo'l transportida xalq –xo'jaligi yuklarini tashish hajmi ancha oshirildi.

1974-yilda qo'shni Tojikiston Respublikasining janubiy viloyatlari bilan iqtisodiy aloqalarni yaxshilash maqsadida uzunligi 54 km bo'lgan Amu-Zang temir yo'li va Termiz –Yovon temir yo'li tarmog'i qurib bitkaziladi.

1982-yilda Amudaryo daryosi orqali Afg'onistonga o'tadigan Termiz – Xayraton temir yo'l va avtomobil yo'li ko'prigi qurib ishga tushirildi. Bu esa qo'shni Afg'oniston davlati bilan iqtisodiy-savdo aloqalarni yaxshilashga imkoniyat yaratdi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz viloyat markazlari va yirik shaharlarida yo'lovchilar va yuk tashishga xizmat qiladigan zamonaviy vokzallar qurib ishga tushirildi. Surxondaryo viloyatining ma'muriy markazi Termiz shahrida 2002 yilda shaharning 2500-yillik yubileyi arafasida barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy vokzal qurib ishga tushirildi.

Ayniqsa arzon qulay dengiz yo'llariga chiqish maqsadida qo'shni Afg'oniston davlati bilan temiryo'l qurilishini amalga oshirish ishlari olib borildi. Natijada 2010 yilning noyabr oyida "Afg'onistonda Xayraton-Mozori-Sharif"

temir yo‘l magistralini qurish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Ushbu loyiha doirasida yangi temir yo‘l liniyasi qurilib, Xayraton temir yo‘l bekati, Noibobod bekatida raz‘ezdlar va yangi temir yo‘l yuk hovlisi qurib ishga tushirildi. Temiryo‘lning umumiy uzunligi 106 km ni, shundan asosiy yo‘llar 75 km ni tashkil qiladi.

Mustaqillik yillarida respublikamizning turli mintaqalarida joylashgan temiryo‘l liniyalarini zamonaviy asosda qayta modernizatsiya qilish ishlari davom ettirildi. O‘zbekiston Respublikasi Osiyo taraqqiyot banki bilan 1998 yildan “O‘zbekiston temir yo‘llari” orqali hamkorlik qilib kelmoqda. Mazkur hamkorlik natijasida “Pop-Namangan-Andijon” temiryo‘l uchastkasini elektrlashtirish” loyihasi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Xitoy Eksimbanki bilan respublikamiz 2010 yildan buyon “Elektorovozlarni xarid qilish” loyihasi doirasida hamkorlik qilib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib Xitoy Eksimbanki bilan hamkorlikda “Toshkent shahrida yer usti xalqa metropolitenini qurish” va “Sharg‘un ko‘mir “aktsionerlik jamiyatini modernizatsiya qilish “ loyihalari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari mamlakatimiz temiryo‘l transportini jadal sur‘atda rivojlantirish maqsadida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (Jahon banki) bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirmoqda. Ushbu hamkorlik bo‘yicha “Elektrlashtirilgan Angren-Pop temir yo‘lining qurilishi hamda Pop –Quqon-Andijon temir yo‘l uchastkasini elektrlashtirish” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda temir yo‘llarni modernizatsiya qilish ishlari davom ettirilib, 2015-2021 yillarda sohani rivojlantirishla keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Ko‘pgina shaharlarni bog‘lovchi temir yo‘llar elektrlashtirilib, yo‘lovchi poezdlar harakatini tashkil etish ishlari olib borildi. Jumladan: 2015yilda Samarqand – Qarshi, 2016 yilda Samarqand-Buxoro yo‘lini elektrlashtirish hamda yuqori tezlikda harakatlanuvchi yo‘lovchi poezdlar harakatini tashkil etish loyihasi yakunlandi va foydalanishga topshirildi.

2017yilda 325 kmli Qarshi –Termiz yo‘li elektrlashtirilib, foydalanishga topshirildi.

2018-yilda 357,3 kmli Buxoro Miskin hamda 33,8 kmli Urganch-Xiva yangi temir yo‘llari qurilib foydalanishga topshirildi. SHuningdek, Qarshi-Kitob

yo'nalishidagi 124 km temir yo'llar elektrlashtirildi. Qandim gazni qayta ishlash (GQZ) va Sherobod sement zavodlariga shahobcha temir yo'llar qurildi.

2019-2020 yillarda Toshkent shaxrida aylanma yo'l usti metropoliten liniyasining 1 bosqich va Yunusobod metropoliten yer osti liniyasi qurilish ishlari olib borildi hamda Toshkent metallurgiya zavodi hududiga shoxobcha yo'li qurilish ishlari boshlandi.

2019 - 2020 yillar davomida Pop-Namangan-Andijan temir yo'l qismini elektrlashtirish va Andijon-Savay-Xonobod temir yo'l qismini modernizatsiya qilish ishlari bajarildi. 2020 yilda Toshkent shaxrida Sirg'ali aylanma yul usti metropoliten liniyasi qurilish ishlari boshlanib, 2021 yilda nihoyasiga yetkazildi.

Bugungi kunga kelib "O'zbekiston temir yo'llar" aktsionerlik jamiyati tizimidagi magistral yo'llar zamonaviy aloqa vositalari bilan ta'minlangan.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida temir yo'l transportida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda, xususan mamlakatimiz hududida halqaro temir yo'l yo'laklarni shakllantirish va rivojlantirish hamda milliy transport kommunikatsiyalariga xalqaro transport oqimlarini jalb qilish, mamlakat ichidagi transport qatnovini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Солиев А.ва бошқ.минтақавий иқтисодиёт.—Т., 2003.
- 2.Солиев А .Ўзбекистон географияси.Т.:Университет, 2014, 404 б.
- 3.Солиев А.,Назаров М.,Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий – иқтисодий ривожланиши . –Т.: “Мумтоз сўз”, 2010.
- 4.Солиев А.Худудий мажмуаларнинг назарий асослари. (Ўқув қўлланма) Т.,2007, 90 б.
- 5.О'zbekiston hududlarining yillik statistika to'plami.O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.Т.:,2019,11-14б.